



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasi mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasi dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamiy Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Xudoyberdiyev Umid Murodovich

«AMANA SUG'URTA» AJ Boshqaruv raisi
umidvip@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/267

Annotatsiya: Turli davlatlarda qo'llanilayotgan Takaful modellari, huquqiy va institutsional to'siqlar, aholi orasida shariatga mos sug'urta xizmatlari haqidagi xabardorlik darajasi o'rganiladi. Xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Solishtirma tahlil asosida mamlakat ijtimoii-iqtisodiy va madaniy jihatlaridan kelib chiqib, Takaful'ni joriy etish va rivojlantirish istiqbollarini o'rganadi. Ushbu maqolada islomiy sug'urta — Takaful'ning jahonda va O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari hamda zamonaviy muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Takaful, islomiy sug'urta, shariatga mos moliya, xalqaro tajriba, huquqiy to'siqlar, moliyaviy savodxonlik, O'zbekiston sug'urta bozori, institutsional rivojlanish, shariat nazorati.

Abstract: This article examines the Takaful models implemented in various countries, alongside the legal and institutional barriers that hinder their development. It explores the level of public awareness regarding Sharia-compliant insurance services and places special emphasis on the prospects for adapting international experience to the specific conditions of Uzbekistan. Through a comparative analysis, the study investigates the implementation and development potential of Takaful in the country, taking into account its socio-economic and cultural context. The research addresses both global trends and contemporary challenges in the advancement of Islamic insurance in Uzbekistan.

Keywords: Takaful, Islamic insurance, Sharia compliance, international experience, legal barriers, financial inclusion, Uzbekistan, insurance market, institutional development, Sharia supervision.

Абстрактный: В статье рассматриваются применяемые в различных странах модели исламского страхования (Такафул), а также правовые и институциональные барьеры, ограничивающие его развитие. Анализируется уровень осведомлённости населения о страховых услугах, соответствующих нормам шариата. Особое внимание уделяется возможностям адаптации международного опыта к реалиям Узбекистана. На основе сравнительного анализа изучаются перспективы внедрения и развития Такафул в стране с учётом её социально-экономических и культурных особенностей. Исследование охватывает как глобальные тренды, так и современные вызовы в контексте развития исламского страхования в Узбекистане.

Ключевые слова: Такафул, исламское страхование, шариатское соответствие, международный опыт, правовые барьеры, финансовая грамотность, страховой рынок Узбекистана, институциональное развитие, шариатский контроль.

Kirish (Введение / Introduction)

Zamonaviy global moliya tizimida islomiy moliya segmenti tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ushbu tizimning ajralmas bo'lagi bo'lgan islomiy sug'urta — Takaful, shariatga muvofiq ravishda moliyaviy himoya vositasi sifatida taklif etiladi. An'anaviy sug'urtadan farqli o'laroq, Takaful tamoyillarida o'zaro yordam, tavakkal va g'arazdan holilik asosiy prinsiplar sifatida qaratiladi. Bu esa, musulmon aholiga shubhasiz halol moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni kabi davlatlarda Takaful tizimi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan va institutsional jihatdan rivojlanmoqda. Biroq ko'plab mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda, ushbu sohaning rivojlanishida muayyan huquqiy, institutsional va ijtimoiy to'siqlar mavjud. Shu bilan birga, Takafulni joriy etish orqali moliyaviy bilimlarni oshirish, aholining sug'urtaga nisbatan ishonchini mustahkamlash, va halol moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirish mumkin.

Mazkur maqolada islomiy sug'urtaning nazariy asoslari, jahon tajribasidagi amaliy modellari, shuningdek, O'zbekistonda Takaful tizimini joriy etish va rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mavjud muammolar chuqur o'rganilib, ularning yechimiga doir takliflar ilgari suriladi.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review). Takaful tizimi rivojlanishi bo'yicha ko'plab fundamental tadqiqotlar mavjud. Muhammad Ayub (Ayub, 2007)[3] Takafulning moliyaviy va shariat asoslarini batafsil tahlil qilgan. Obaidullah (Obaidullah, 2008)[9] islomiy moliyaviy xizmatlar ichida Takafulning o'rni va iqtisodiy

mexanizmlarini ko'rsatib bergan. Dr. Salman Syed Ali (Ali, 2019)[10] shariat va moliyaviy arxitektura o'rtasidagi uyg'unlikni chuqur o'rgangan. Dr. Rusni Hassan (Hassan, 2012)[11] shariat nazorati va huquqiy mexanizmlarning institutsional shakllanishini yoritib bergan. M. Obaidullah (Obaidullah, 2018)[9] mikro-Takaful va ijtimoiy moliya sohasida o'z tadqiqotlarini olib borgan. O'zbek olimlaridan Sh. Xudoyqulova (Xudoyqulova, 2022) islomiy moliya tizimining nazariy va huquqiy jihatlarini[12] yoritgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda taqqoslovchi tahlil (Ayub, 2007; Obaidullah, 2008)[3], normativ-huquqiy hujjatlar tahlili (Xudoyqulova, 2022)[12] va xalqaro tajribalarni solishtirish (Ali, 2019; Hassan, 2012)[11] usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Jahon tajribasida Takaful bozori jadal rivojlanmoqda. Malayziya va Saudiya Arabistonida Takaful sug'urtasi moliyaviy sektorning ajralmas qismi hisoblanadi (Ali, 2019; Hassan, 2012). O'zbekistonda esa hali ham huquqiy asoslar va aholining xabardorlik darajasi yetarli emas (Xudoyqulova, 2022).

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda Takaful tizimini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: normativ-huquqiy bazani takomillashtirish (Xudoyqulova, 2022), moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va mikro-Takaful loyihalarini ilgari surish (Obaidullah, 2018; Abdullayev, 2023).

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Maqolada Takaful tizimining zamonaviy imkoniyatlari va rivojlanish muammolarini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv – mavjud xalqaro va mahalliy tajribalar tahlil qilindi.

Solishtirma tahlil – an'anaviy sug'urta bilan Takaful tizimi o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlab chiqildi.

Deskriptiv (ta'rifiy) yondashuv – O'zbekistonda mavjud huquqiy-institutsional muhit tavsiflandi.

Empirik usullar – aholi fikrlarini o'rganish maqsadida onlayn so'rovnomma va yarim tuzilgan intervyulardan foydalanildi.

SWOT tahlil – Takaful tizimini joriy etishdagi kuchli, zaif, imkoniyat va xavf omillari baholandi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Bugungi kunda islomiy moliya tizimining kengayib borishi Takaful – shariatga mos sug'urta modeliga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda. Aholining moliyaviy ongini oshirish, halol moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning o'rtishi va sug'urta sektorini diversifikatsiyalash zaruriyati O'zbekistonda Takaful tizimini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalishda huquqiy, institutsional va axborot infratuzilmasi yetarlicha shakllanmagan.

Takaful — bu shariat tamoyillariga asoslangan, o'zaro yordam va mas'uliyat prinsiplariga tayanadigan sug'urta tizimi bo'lib, u foyda olish emas, balki moliyaviy himoya va ijtimoiy adolatni ta'minlashni ko'zlaydi. Takaful modellari – Wakalah, Mudarabah, Waqf kabi shakllarda faoliyat yuritadi va islomiy moliya doirasida muqobil sug'urta yechimi sifatida qaraladi.

Bu yo'nalishda Takaful tizimining nazariy asoslari, xalqaro tajribalari va O'zbekistondagi joriy holatini tahlil qilish, shuningdek, bu yo'nalishdagi rivojlanish muammolarini aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad hisoblanadi.

Asosiy vazifalar Takaful tushunchasi va modellari bo'yicha nazariy tahlili, Jahon va mintaqaviy tajribalarni solishtirish, O'zbekistonda Takafulni joriy etishdagi to'siqlarni aniqlash, Raqamli texnologiyalar va moliyaviy savodxonlikni baholash, Mahalliy sharoitga mos tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Amaldagi qoninchilikka [1] ko'ra sug'urta ikki soxaga – umumiy sug'urta sohasi hamda hayotni sug'urta qilish sohaloriga bo'linadi. Hamda sug'urta ixtiyoriy va majburiy sug'urta shakllarida amalga oshiriladi. Takoful su'gurtasi haqida tushuncha hamda atamalar mavjud emas.

Takaful tizimi Qur'on va Sunnatga asoslangan holda, o'zaro yordam (ta'awun), tavakkal (tawakkul), va foizdan (ribo) xoli bo'lish tamoyillariga tayanadi. U moliyaviy xavflarni adolatli taqsimlash, taraflar o'rtasida halollik va ishonch asosida bitim tuzishni ko'zda tutadi. An'anaviy sug'urtadan farqli ravishda, Takafulda kompaniya foyda olishdan ko'ra, mablag'larni boshqaruvchi va vositachi sifatida ishtirok etadi.

Takaful tizimining asosiy maqsadi, sug'urta ishtirokchilari nuqtai nazaridan, foyda olish yoki tasodifiy daromad emas, balki o'zaro yordam tamoyiliga asoslangan. Bu an'anaviy sug'urtadan farqli jihatdir. Har qanday Takaful shaklida — xoh u oilaviy Takaful (hayot sug'urtasiga muqobil) bo'lsin, xoh umumiy Takaful bo'lsin — ishtirokchilar belgilangan zarar yoki falokat holatida bir-birlariga yordam berishga oldindan rozi bo'ladilar[3].

Biroq bu tizim biznes faoliyat shaklida yuritilganligi sababli, Takaful operatorlari ko'rsatilgan xizmatlar evaziga belgilangan to'lovlar (haq) olishlari yoki foyda ulushiga ega bo'lishlari mumkin. Shuningdek, agar guruh a'zolari tomonidan yuzaga kelgan zararni qoplagandan so'ng foyda qolsa, bu foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Takaful tizimi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, halol investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali taraqqiyotga xizmat qiladi. U oilalar va kichik bizneslar uchun xavflarni kamaytirish vositasi bo'lib, kambag'allikka qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi [8].

Takaful o'zining adolat, mas'uliyat va halollikka asoslangan tuzilmasi bilan nafaqat diniy talablarni qondiradi, balki barqaror va etik sug'urta muhitini shakllantirish imkonini ham beradi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida Takaful tizimini bevosita tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjatlari mavjud emas. Amaldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar an'anaviy sug'urtaga moslashtirilgan bo'lib, shariat tamoyillariga asoslangan xizmatlar uchun huquqiy bo'shliq mavjud. Bu esa, Takaful asosida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan subyektlar uchun huquqiy noaniqlik va xavflarni keltirib chiqaradi.

An'anaviy sug'urta hamda Takaful tizimlari solishtirma tahlili¹.

Mezoni	An'anaviy sug'urta	Takaful
Maqsad	Foyda olish	Ijtimoiy yordam va xavf taqsimoti
Shartnoma tabiati	Tijorat korxonasi (foйда olishga yo'naltirilgan)	O'zaro yordamga asoslangan ishtirokchilar ittifoqi
Mablag'ni boshqarish	Kompaniyaning o'z mablag'i	Ishtirokchilar fondi orqali
Foyda taqsimoti	Kompaniya egalari foyda oladi	Foyda ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi yoki fondga qoladi
Shariatga muvofiqlik	Ribo, gharar va qimor elementlari bo'lishi mumkin	Shariat talablariga to'liq mos
Moliyaviy manba	Mukofotlar (premsiyalar) kompaniya mulligiga aylanadi	Ishtirokchilar umumiy fondiga topshiriladi
Xatarni boshqarish	Sug'urta kompaniyasi xatarni qoplaydi	Xatar ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi

Qonunchilikda Takaful tizimini joriy etishga oid topshiriq 2024 yil 1 martdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi 108-sonli qarorining 11 bandiga ko'ra Istiqbolli loyihalar milliy agentligi 2025-yil 1-yanvarga qadar ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rgangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takaful tamoyillarini va mahsulotlarini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutuvchi takliflarni kiritish topshirig'i berilgan[4].

Aholi orasida Takaful tushunchasi va uning islomiy moliya tizimidagi o'rni haqida yetarlicha bilim yo'q. Tahlillar natijasiga ko'ra, aholining aksariyati shariatga mos sug'urta xizmatlari mavjudligidan bexabar. Bu holat Takaful mahsulotlariga nisbatan ehtiyoj mavjud bo'lsa-da, uning amaliy joriy etilishiga to'sinlik qilmoqda.

Takaful xizmatlarini taklif etish uchun zarur bo'lgan texnologik, institutsional va malakali kadrlar infratuzilmasi hali to'liq shakllanmagan. Maxsus Takaful IT-platformalarining yo'qligi, shariat nazorati kengashlarining amalda faoliyat yuritmasligi va yetarli malakali mutaxassisning kamligi — bu tizimni keng miqyosda joriy etish uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi.

Jahon miqyosida Takaful tizimi eng muvaffaqiyatli shaklda Malayziya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklarida joriy etilgan. Ushbu davlatlarda Takaful faoliyati alohida qonunlar bilan tartibga solinadi, shariat nazorati kengashlari faol ishlaydi va aholining ishonchi yuqori. Jumladan, Malayziyada Bank Negara nazorati ostida ishlovchi Takaful operatorlari kuchli IT-infratuzilma, mahsulotlar diversifikatsiyasi va raqamli platformalar orqali faoliyat yuritmoqda.

Islomiy moliya sanoatining eng kichik segmenti bo'lgan takaful (islom sug'urtasi) 17% ga o'sdi va buning natijasi o'laroq 2021-yilda 73 milliard dollar mablag'ga ega bo'ldi[5].

Jahon Takaful bozori ko'rsatkichlari tahlili asosiy indikatori bo'lib ushbu yo'nalishda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi dinamikasi hisoblanadi.

Quyida jahon Takaful bozorining 2018-yildan 2023-yilgacha bo'lgan hajmi va o'sish sur'atlari barqaror o'sish kuzatildi, va yillik o'rtacha 12–15% o'sdi. Hududiy yetakchik 2024-yilda bozorning 85% ulushi GCC, yani arab ko'rfazi davlatlariga to'g'ri keladi. 2025–2033-yillarda o'sish sur'ati 8,28% atrofida bo'lishi kutilmoqda.

MDH davlatlari orasida Qozog'iston va Rossiyada Takaful elementlarini sinov tariqasida joriy qilishga urinishlar mavjud. Qozog'istonda 2021-yildan boshlab "Islomiy moliya markazi" doirasida ayrim pilot loyihalar amalga oshirilmoqda, biroq huquqiy va institutsional bazaning zaifligi tufayli bu jarayon sekin bormoqda.

2023-yilda Pokistonda o'tkazilgan so'rovnoma 250 ishtirokchining 59,6% Takaful haqida hech qanday ma'lumotga ega emasligi aniqlangan. Ishtirokchilarning 62,8% Takafulning shariatga mosligini bilmagan. Javob beruvchilarning 80,9% 20–30 yosh oralig'ida bo'lib, bu yosh guruhida xabardorlik darajasi pastligi kuzatilgan.

Malayziyada Takaful xizmatlari bo'yicha ishtirok etish tayyorgarligi (e-Takaful Participation Readiness) bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda, respondentlarning raqamli platformalarda Takaful xizmatlaridan foydalanishga tayyorligi va bu boradagi bilim darajasi o'rganilgan. Mazkur tadqiqotda PLS-SEM (Partial Least Squares Structural Equation Modeling) usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotda 395 nafar respondent ishtirok etgan. Ularning demografik profili quyidagicha:

Jins: 66.3% ayollar, 33.7% erkaklar

Yosh: 79.7% – 21–30 yosh oralig'ida

Ta'lim darajasi: 55.4% – bakalavr bosqichida, 26.6% – diplom dasturida

Kasbiy holat: 47.1% – xususiy sektor, 33.7% – o'zini o'zi band qilgan

Oilaviy holat: 74.2% – beqaror, 25.6% – turmush qurgan

Daromad: 73.9% – oyiga 3000 RM dan kam topadi

Takaful bo'yicha savollar:

357 respondent (90.4%) Takaful haqida eshitgan

182 nafar respondent (46.1%) hozirda Takaful mahsulotlarida ishtirok etmoqda

41% – agentlar orqali, 35.4% – onlayn, 23.5% – to'g'ridan-to'g'ri ofisga murojaat orqali Takaful xizmatini afzal ko'radi

33.9% – bir yil ichida Takaful sotib olish niyatida

57.5% – onlayn Takafulni qulay deb hisoblaydi

Onlayn Takafulga salbiy munosabat bildirganlar sabablari:

16.7% – mahsulot haqida bilim yetishmasligi

16.5% – da'vo qilishda yordam kerak bo'ladi deb o'ylaydi

4.1% – moliyaviy holatini baholay olmaydi

3% – texnologik infratuzilma sust

2.3% – yashirin to'lovlardan xavotirda

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yoshlar va talaba qatlam orasida Takafulga nisbatan yuqori darajada xabardorlik mavjud bo'lsa-da, ishtirok darajasi past. Buning asosiy sabablari – moliyaviy savodxonlik yetishmasligi, texnologik ko'nikmalarning pastligi va maslahatga bo'lgan ehtiyojdir. Shu bilan birga, respondentlarning yarmidan ko'pi onlayn Takafulni qulay deb biladi, bu esa raqamlashtirish strategiyalarini rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, aholining yosh qatlamiga qaratilgan ommabop va sodda Takaful mahsulotlarini ishlab chiqish, shuningdek, raqamli xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarga asos bo'la oladi.

Takaful tizimining O'zbekistonda rivojlanish imkoniyatlarini SWOT tahlili yordamida ko'rib chiqadigan bo'lsak.

S (Kuchli jihatlari)

Aholining islomiy qadriyatlarga yaqinligi va shariatga mos moliyaviy xizmatlarga yuqori talab, Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish uchun yangi imkoniyat, Takafulning adolat va halollikka asoslangan tamoyillari aholi ishonchini oshiradi, Islomiy moliya sektorining bosqichma-bosqich rivojlanib borayotgani (banklar, sukuk).

W (Zaif jihatlari)

Takaful bo'yicha maxsus qonun va normativ hujjatlarning yo'qligi, Aholi va moliyaviy muassasalar orasida shariatga mos sug'urta tushunchasining yetarli emasligi, Kadrlar va mutaxassislar tanqisligi (shariat ekspertlari, aktuariyalar), Mahalliy sug'urta kompaniyalari orasida Takafulga oid tajribaning sustligi.

O (Imkoniyatlar)

Raqamli texnologiyalar orqali e-Takaful xizmatlarini yo'lga qo'yish imkoniyati, Yosh avlodning moliyaviy xizmatlarga raqamli platformalar orqali kirishi, Xalqaro moliyaviy institutlar (ISDB, IRTI) bilan hamkorlik imkoniyatlari, Sukuk, waqf va mikro-Takaful orqali ijtimoiy himoyani kuchaytirish.

T (Xavf-xatarlar)

An'anaviy sug'urta kompaniyalarining raqobat bosimi, Noto'g'ri tushuncha: Takaful — bu faqat musulmonlar uchun degan stereotip, Huquqiy tizimda shariatga mos moliyaviy amaliyotlarga tayyorlikning yetishmasligi, Mahsulotlar va marketing strategiyalarining noto'g'ri yo'naltirilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

- 2021 yil 23 noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son O'zbekiston Respublikasi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5739117>
- 2024 yil 1 martdagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. <https://lex.uz/docs/-6824178>
- Dr. Muhammad Ayub – Islomiy moliya asoslarini tushunish. Takafulning moliyaviy mexanizmlari va shariatga muvofiqlik (Understanding Islamic Finance). // https://www.ajindex.com/dosyalar/kitap/acarindex-1424384539.pdf?utm_source=chatgpt.com
- Alisher Eshimov - Jahonda islom moliyasining rivojlanish tendensiyasi // https://www.researchgate.net/publication/376403420_JAHONDA_ISLOM_MOLIYASINING_RIVOJLANISH_TENDENSIYASI
- A. Mirzaxmedova - Iqtisodiy tizimda takaful sug'urtasining afzalliklari va uning islomiy moliylashtirishning muqobil usullarini baholash // <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/120>

O'zbekiston sharoitida Takaful tizimini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Huquqiy asoslar yaratish – "Takaful to'g'risida" maxsus qonunni ishlab chiqish va shariatga mos moliyaviy faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni tayyorlash;

Shariat nazorati kengashlari tashkil etish – islomiy moliya bo'yicha malakali ulamolar ishtirokida doimiy fatvo va maslahat mexanizmini yo'lga qo'yish;

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholi va tadbirkorlar uchun islomiy sug'urta bo'yicha o'quv dasturlari va axborot kampaniyalarini yo'lga qo'yish;

Raqamlashtirish va innovatsiyalar – raqamli savdo tizimlari orqali Takaful mahsulotlarini taklif etish, mobil ilovalar va fintech texnologiyalarni amalga tatbiq etish orqali xizmatlar doirasini kengaytirish;

Xalqaro hamkorlik – AAOIFI va IFSB kabi tashkilotlar bilan metodologik va texnik hamkorlik o'rnatish.

Shu bilan birga O'zbekiston sug'urta bozoridagi mavjud sug'urta tashkilotlariga Takaful darchalarini ochishni tavsiya etish hamda 1-2 yangi sug'urta tashkilotlariga sinov tariqasida to'liq Takaful – islomiy sug'urta faoliyatini amalga oshirish sharti bilan davlat nazorati ostida litsenziyalash. Shungdek takaful "start-up"lar uchun inkubatsiya dasturlari, yoki "pilot model" asosida 1 ta hududda tajriba o'tkazish mumkin.

Takaful sug'urtasi islom moliyasining dinamik va rivojlanayotgan sektori bo'lib, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy resurslasniya axloqiy xulq-atvor nuqtai nazaridan ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Axloqiy va shariatga mos moliyaviy yechimlarga talab ortib borishi fonida, takaful sug'urtasi islomiy moliya kelajagini shakllantirishda va global iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shishda tobora muhim rol o'ynashga xizmat qiladi[6].

Davlat tomonidan Takaful sug'urtasini shakllantirishda fundamental sohalar bo'lgan islom moliyasi va bankchiligi sohalarining moliyalashtirilish darajasi, uning tarkibiy qismlari qayta ko'rib chiqilishi hamda ushbu sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholovchi mezonlar ishlab chiqilishi zarur[7].

Takaful tizimi O'zbekiston moliya bozorida istiqbolli yo'nalish bo'lib, aholining halol va shariatga mos sug'urta xizmatlariga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Takaful sanoati rivojlanishda va innovatsiyalarda davom etar ekan, u moliyaviy inklyuzivlikni rag'batlantirish, iqtisodiy barqarorlikni oshirish va butun dunyo bo'ylab jamiyatlar farovonligiga hissa qo'shadi[6].

Biroq tizimni joriy etish yo'lida huquqiy me'yorlarning yetishmasligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi va raqamli infratuzilmaning sust rivojlangani asosiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, global amaliyotdan kelib chiqib aytish mumkinki, to'g'ri yondashuv, shaffoflik va shariat asoslariga qat'iy amal qilish orqali Takaful muvaffaqiyatli rivojlantirilishi uchun barcha asoslar mavjud.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Takaful tizimini rivojlantirish uchun quyidagi strategik yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega - Takaful faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik asoslarini ishlab chiqish; Shariat nazorati mexanizmlarini institutsional asosda tashkil etish; Aholi va moliya sohasi mutaxassislarini o'qitish orqali savodxonlikni oshirish; Mahalliy va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; Takaful xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Ushbu yo'nalishlar orqali O'zbekistonda Takaful tizimi barqaror, shaffof va shariatga mos moliyaviy xizmatlar majmuasiga aylanishi mumkin.

5. Kh. Khasanov – Takaful – Islomiy sug'urta tizimi sifatida // https://www.researchgate.net/publication/343759897_Takoful_-_Islomij_sugurta_tizimi_sifatida
6. U. Dadabaev - Jahon moliyaviy xizmatlar bozorida takofulning rivojlanishi va joriy holati // https://www.researchgate.net/publication/380036604_JAHON_MOLIYAVIY_XIZMATLAR_BOZORIDA_TAKOFULNING_RIVOJLANISHI_VA_JORIY_HOLATI
7. Yusof, M. F., Wan Ismail, W. Z., & Mohd Naaim, A. K. (2011). Fundamentals of Takaful. Kuala Lumpur: IBFIM. <https://unissa.edu.bn/e-fihrist/cgi-bin/koha/opac-detail.pl?biblionumber=12080>
8. Obaidullah, M. (2008). Islamic Financial Services. International Institute of Islamic Business and Finance. // https://www.researchgate.net/publication/228201195_Introduction_to_Islamic_Microfinance
9. Ali, S. S. (2019). Shari'ah Governance in Islamic Financial Institutions. Islamic Development Bank. // <https://www.irti.org/Publications/Pages/default.aspx>
10. Hassan, R. (2012). Legal Framework and Shariah Governance for Islamic Financial Institutions. International Islamic University Malaysia.
11. Xudoyqulova, S. (2022). Islomiy moliyaviy xizmatlarning huquqiy asoslari va ularni rivojlantirish zarurati. // <https://e-itt.uz/index.php/editions/article/download/945/890/1752>